

Birinchi tashabbus ijrosi

"Yer resurslarini boshqarish" fakultetidagi tadbir e'tiborga molik bo'ldi. Unda Toshkent transport universiteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini F.Islomovna va Buxoro davlat unversiteti talabasi Z.Raxmatovalar o'zlarining ijodiy minatyura asarlari bilan tashrif buyurishdi. Unversitet xotin-qizlar kengashi raisi o'rinbosari Z.Hafizova, fakultet dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yisa dekan muovini H.Eshova hamda fakultet tyutorlari S.Ibragimova, M.Vafoiva, D.Xursandova, M.Ma'sharipovlar tashabbusi bilan o'tkazilgan tadbir barcha talabalarga manzur bo'ldi.



Tadbirni fakultet dekani Sh.Narbaev kirish so'zi bilan ochib berdi. U nutqida rassomchilik va minatyura san'ati haqida talabalarga ma'lumot berib, tadbir mehmoniga so'z berdi.



Zuxra Raxmatova o'zi chizgan minatyura san'ati asari to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berib o'tdi. Suhbat davomida talabalar bu san'atning yaratilishi haqida batafsil ma'lumotlar olish uchun mahorat darsi ham o'tkazildi.



Tadbir so'ngida Buxoro davlat universiteti talabasi Zuxra Raxmatova o'z qo'li bilan yaratgan san'at asarini estalik sifatida fakultetimiz jamoasiga da sovg'a qildi. Ushbu tadbir talabalarga katta taassurot qoldirdi.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan movini Hurriyat Eshova axboroti